

## O'zbekistonning muhim turistik obyektlaridan biri


Qadimgi Davan davlatining poytaxti sifatida qad ko'targan Eski Aksi shahri- Axsikent yodgorligi bugungi kunda YuNESKOning butun jahon madaniy merosi obyekti sanaladi. 2018-yil Davlatimiz Rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan Axsikent yodgorligining bitta obyektida “Ochiq osmon ostida muzey” tashkil etildi.

Bu yerda dastlabki qazish ishlari XIX asrdan boshlangan. Dastlab N.Veselovskiy, 1913-yilda I. Kastane tomonidan o'rjanilgan. 1939-yilda M.E. Masson tomonidan kuzatuv-qidiruv ishlari olib borilgan. 1950-yil oxiridan boshlab esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologik qazuv ishlari olib borildi.

1979-yilda A.Anorboyev rahbarligida Farg'ona arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etildi va ko'p yillar davomida I.Ahrorov va A.Anorboevlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida Shahristonning quyi qatlamlari e.o.III-II asrlarga borib taqalishi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqotlar jarayonida Axsikentga Kosonsoydan pishiq g'ishtdan tunel usulida qurilgan irrigatsion inshoot orqali ichimlik suvining keltirilgani 1970 - 1980 yillarda I.Ahrorov, A.Muhammadjonovlar qazishmalari orqali aniqlandi.


Bu yodgorlikda bugungi kunda uzoq yillar davomida tadqiqotlar olib borayotgan olim, tarix fanlari doktori A.Anorboyev tomonidan qadimiy Aksi shahri, uning qadimgi Farg'onanining poytaxti sifatidagi o'rni, hunarmandchiliga doir juda noyob va qiziqarli artefaktlar qo'lga kiritildi.



M.avv. IX-X asrlarda hozirgi Axsikent yodgorligining o'rni va uning atrofida yuzlab gettar yerlar

o'zlashtirilib, dehqonchilik qilinganligi olim tomonidan aniqlandi.

Axsikentda VIII asrning oxirlarida sirli sopol va shisha idishlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligi, sirli sopol idishlarga arab tilida kufi va kursiv yozuvlarida bitilgan har xil aforizmlar va hadislardan olingan yozuvlar tushirilganligi qazuv ishlari orqali ochib berildi.



Yodgorlikni bugungi kunda ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirishda olimning xizmatlari katta. Shahar obodonchiliga doir masalalar ham olimning tadqiqotlarida alohida o'rinnegallagan. Tadqiqotlar davomida qadimgi Farg'onada IX-XII asrlarda hammomlar qurilgani va uning o'ziga xos qurilish uslubi bo'lganligini ko'rsatuvchi materiallar qo'lga kiritilgan.

Axsikent A.Anorboyev tadqiqotlariga ko'ra dastlab ikki qismdan: ark va shahristondan iborat bo'lgan, eradan oldingi II asrda esa 10 ga dan iborat rabod vujudga kelganligi, ilk o'rta asrlarga kelib esa shaharning kengayishi kuzatiladi va uning maydoni 60-70 ga2 ga yetishi, IX-XII asrlarda esa 400 ga dan oshganligi ma'lum bo'ldi. Olim tadqiqotlarida Axsikentning moddiy madaniyati tarixiga doir qiziqarli ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Axsikentliklarning yuqori sifatli po'latni kashf etganliklari arxeologik tadqiqotlar orqali isbotlab berildi. Farg'ona ekspeditsiyasi tadqiqotlari natijasida "Damashq qilichlari" ni yasalish tarixiga oydinlik kiritildi.



Kulolchilik mahsulotlarining o'ziga xos yasalish texnikasi va texnologiyasi o'rganildi. Axsikent kulollarining nozik did bilan ishlangan, sirlangan kulolchilik mahsulotlari qo'lga kiritildi. Hunarmandchilik mahsulotlariga oid sopol idishlar, zeb-ziynat buyumlari, temir bumlar, tanga pullarning topilishi bu yerda iqtisodiy madaniy hayot ravnaq topganidan darak beradi.

Bugungi kunda ushbu yodgorlik O'zbekistonning muhim turistik obyektlaridan biriga aylandi.